

TELEJURNALISTIKADA TELEKO'RSATUVLAR TAHLILI

Xushnazarova Sevinch Norqo'chqor qizi

Jurnalistika fakulteti 10.00.09 - ixtisosligi tayanch (PhD) doktoranti

Sevinch.norkobilova@gmail.ru

Annotatsiya: Maqolada ommaviy axborot vositalarida madaniy va ma'rifiy ko'rsatuvlarning bolalar tarbiyasiga ta'siri va yoshlar ma'naviyatida ba'zi muammolar yuzaga kelayotganligi bunday ko'rsatuvlarning milliy ma'naviyatimizga ayniqsa yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'siri bo'lishi haqida so'z yuritilgan. Shunga ko'ra, maqolada televideniya bugungi kunda bo'lib o'tayotgan ko'rsatuvlarni tahlil qilgan va fikr mulohazalari bildirib o'tilgan.

Fikrimcha, har bir davlatning rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, ularni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga bog'liq. Xususan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun ular orasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot - tashviqotining samarasini oshirish zarurligini ta'kidlab, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonnibarpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan ruchli ma'naviyat", deydi Shavkat Mirziyoyev murojaatlardan birida. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televideniya, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atiga, bir so'z bilan aytganda insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir yetkazadigan barcha sohalaridagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bu yo'lda esa tabiiyki ommaviy axborot vositalarining o'rnini tengsizdir hamda ularga ulkan vazifalar yuklatiladi. OAV hayotda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga yoshlarni ongli munosabatini uyg'otuvchi, xolislik va haqqoniyat prinsiplariga tayanib faoliyat ko'rsatadigan bir hokimiyatdir. Shuningdek, to'rtinchi hokimiyat hisoblangan OAV turli xil fikrlar rang-barang qarashlar va yondashuvlarga keng yo'l ochib beradi.

A.Sohibov ham o'zining "Ommaviy axborot vositalari ma'naviy-axloqiy tarbiya minbari" mavzusidagi maqolasida O'zbekiston televideniyesi orqali ulug' allomalar, mutaffakirlarning ijodiy faoliyati, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissalarini, mashhur ma'rifatparvarlarimizning odob-axloqqa oid qarashlari, ularning asarlaridan parchalarni muntazam ravishda berib borilayotganligi, shuningdek, o'zbek adiblari hamda chet el taraqqiyparvar yozuvchilarining asarlari asosida tayyorlangan spektakllarni namoyish qilayotganligi xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida

muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Milliy ma'naviyatimizga zid bo'gan teleko'rsatuv va reklamalarga murosasiz bo'lish burchimiz ekanligini esa eslatadi.

Shu o'rinda bir fikr, ayrim kabelli televideniylar manfaat ortidan quvib namoyish etayotgan film va reklamalarda millat ma'naviyatini yemiruvchi "media virus" bor. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiyadan iborat "emlash" ishlarini olib borish zarurdir. Tabiiyki, "emlash ishlari" maktablardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda bizga tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat kabi tushunchalar yordamga keladi. Ekranda zo'r berib targ'ib va tashviq etilayotgan yangi yengil-yelpi turmush tarzi ko'pchilikni maqsad mudaosiga aylanishi hech gap emas. Huzur-halovatga moyil odam esa qiyinchiliklarga bardoshsiz bo'ladi. Sitseronning ta'kidlashicha, "huzur va lazzatni oliy saodat deb biluvchi kishi sira ham nafsni tiyib, sabr-bardoshli bo'la olmaydi".

Televideniye omma o'rtasida radio va boshqa nashrlarga nisbatan ko'proq ishonch uyg'otganining sababi shundaki, u yolg'onni haqiqatga aylantirish bobida boshqa axborot vositalarida bo'lmagan alohida "salohiyat"ga ega. Ya'ni, ekran orqali havola etilayotgan yolg'on yashiqni ham tomoshabin aynan haqqoniyat deb qabul qiladi. Go'yo televizor aldamaydi, "dilbuzar" dilni buzmaydi.

E'tibor qaratsak, ayni paytda bolalar uchun "Bolajon" telekanali faoliyat olib bormoqda. Aynan ushbu kanalda har kuni bolalar uchun ingliz tili darsi o'tiladi. Bu bilan hali birinchi sinfda o'qiydigan yosh bolalarda ham tilga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi. Nafaqat bolalar, balki yoshlar va yoshi katta insonlar ham bu ko'rsatuvni qiziqish bilan kuzatib borishadi. Ingliz tili darsida tabiiylikdan qochgan holda har xil interfaol usullarda, o'yin tarzida dars o'tilishi hech kimni zeriktirib qo'ymaydi.

Agar astronomiya va geografiya fanlariga qiziqishingiz bo'lsa "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali efirga uzatiladigan "Olam" hujjatli filmi tomosha qilishingiz mumkin. Unda dunyoning biz bilgan va bilmagan sir sinoatlari ochib beriladi. Ba'zida dunyoning naqadar qudratli ekanligiga, ba'zida esa tabiatning o'zi haqiqiy rassom ekanligiga yana bir marta amin bo'lamiz.

Televideniye jamiyatda milliy ehtiyoj kasb etgan dolzarb muammolarni birlashtiradi. Turmush va butun hayotimiz davomida zarur bo'ladigan faolligimizni oshirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umirov S., Do'stmuhammedov X., Abduholiqov I., Jo'rayev X., Karimov A., Mo'minova F., Matyoqubov A. "Masa-media tipologiyasi, texnikasi va iqtisodi". Toshkent 2010
2. Abduxoliqov I, Karimov A. Telejurnalistika asoslari (Ma'ruza matnlari) Toshkent 2005